
“PARLAMENT O‘YINLARI”; SPORT MUSOBAQASINING HUDUDiy BOSQICHIDA TUMANIMIZ VAKILI G‘OLIB BO‘LDI

Yurtimizda barcha sohalar qatorida jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish, aholini sog‘lom turmush tarziga rioya qilgan holda, sport bilan shug‘ullanishga jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan mahalliy Kengash deputatlari o‘rtasida an’anaviy ravishda "Parlament o‘yinlari" sport musobaqalari o‘tkazib kelinmoqda.

Kuni-kecha o‘tkazilgan musobaqaning hududiy bosqichida sportning stol tennisi turi bo‘yicha Xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashi deputati Azizjon Ibragimov faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

G‘olib bo‘lgan jamoalar va musobaqaning eng faol ishtirokchilari viloyat hokimligi tomonidan diplom va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi hamda musobaqaning keyingi viloyatlar o‘rtasidagi mintaqaviy bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdilar.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-15 16:57:36